

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

*60530800 - Hidrologiya (tarmoqlar bo'yicha)  
bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari*

Toshkent-2023



**ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:**

**ISHLAB CHIQLIGAN:**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «21» 08 dagi 367 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy meyoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	60530800 - <i>Gidrologiya (tarmoqlar bo'yicha)</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi .....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1.	60530800 - <i>Gidrologiya (tarmoqlar bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanishi .....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	60530800 - <i>Gidrologiya (tarmoqlar bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	60530800 - <i>Gidrologiya (tarmoqlar bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	60530800 - <i>Gidrologiya (tarmoqlar bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....	4
1.2.3.	60530800 - <i>Gidrologiya (tarmoqlar bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	60530800 - <i>Gidrologiya (tarmoqlar bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari .....	5
2.	60530800 - <i>Gidrologiya (tarmoqlar bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar .....	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	6
2.3	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	7
2.3.1.	Kvalifikatsiya.....	8
2.3.2.	60530800 – <i>Gidrologiya (tarmoqlar bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha satlar va kreditlar.....	8
2.3.3.	60530800 - <i>Gidrologiya (tarmoqlar bo'yicha)</i> bakalvriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasining tuzilishi.....	8
	Bibliografik ma'lumotlar.....	9
	Kelishuv varag'i .....	10

## **1. 60530800 - Hidrologiya (tarmoqlar bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi**

**60530800 - Hidrologiya (tarmoqlar bo'yicha)** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va kechki ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil..

### **1.1. Qo'llanish sohasi.**

#### **1.1.1. 60530800 - Hidrologiya (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi 5141100-Gidrologiya (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

– mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun ma'sul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

– ta'lim yo'nalishining o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

– ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

– oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

– oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

– kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

– oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abiturentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

#### **1.2. 60530800 - Hidrologiya (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi**

##### **1.2.1. 60530800 - Hidrologiya (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:**

**60530800 – Hidrologiya (tarmoqlar bo'yicha)** - ilm va tabiiy fanlar sohasidagi yo'nalish bo'lib, u Yer haqidagi bilimlar bilan aloqador bo'lgan loyihalash, ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqot, gidrologik ekspertiza, ma'muriy boshqaruv va tashkiliy ishlar majmuini qamrab oladi.

##### **1.2.2. 60530800 – Hidrologiya (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:**

- turli metodlar bo'yicha o'tkaziladigan tadqiqot ishlarida qatnashish va natijalarni qayta ishlash va xulosalar chiqarish;

- daryolar, ko'llar, suv omborlari, muzliklar, qor qoplami, ularning gidrometeorologik rejimini o'rganish va tadqiq qilish;

- suv ob'ektlariga tabiiy va antropogen omillar ta'sirini baholash, ulardagi miqdor va sifat o'zgarishlarini tahlil qilish;

- yer resurslari, davlat kadastri va kartografiya davlat qo'mitalarida;

- suv ho'jaligi vazirligi tizimidagi idoralar va viloyat bo'linmalarida;

- qishloq ho'jaligi vazirligi tizimidagi idoralar va viloyat bo'linmalarida;

- ishlab chiqarish korxonalarida;

- suv ob'ektlarida suv o'lchash va kuzatish ishlarini tashkil etishda;

- suv xo'jaligi tizimida gidrometrik ishlarni bajarishda;

– iqlim o'zgarishi va tebranishlariga ta'sir etuvchi tabiiy va antropogen omillar to'g'risidagi bilimlarni amaliyotda qo'llash;

– suv ob'ektlari suv sifati hamda gidrokimyoviy rejimini baholash;

– gidrologik hisoblashlar va ularda qo‘llaniladigan usullar, uslublarni ishlab chiqish, takomillashtirish hamda amaliyotda qo‘llash;

– gidrologik prognozlar usullarini ishlab chiqish, takomillashtirish va amaliyotda qo‘llash.

- Fanlar Akademiyasi va tarmoq institutlarining tajriba-tadqiqot va ilmiy – tadqiqot laboratoriyalarida izlanishlar olib borish;

- davlat boshqaruvi organlarining turli hududiy darajalarida mutaxassis sifatida faoliyat ko‘rsatish;

- lokal, regional, milliy va global tabiiy, antropogen, tabiiy-xo‘jalik, ekologik-iqtisodiy, ijtimoiy va ishlab-chiqarish sistemalari, barcha turdagi xo‘jalik faoliyati gidrologik qismlarining boshqarilishi, nazorati, monitoringi, barcha darajadagi gidrologik ishlarni rivojlanish dasturlari, suv ob‘ektlarini muhofaza qilish bo‘yicha muammolari va boshqalar;

-vazirliklarning o‘quv-ilmiy bo‘limlarida faoliyat yuritish.

### **1.2.3. 60530800 – Gidrologiya (tarmoqlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari**

• *ilmiy-tadqiqot;*

• *loyiha-texnologik;*

• *servis xizmatini ko‘rsatish;*

• *ishlab chiqarish-texnologik;*

• *tashkiliy-boshqaruv;*

### **1.2.4. 60530800 – Gidrologiya (tarmoqlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari**

60530800 – Gidrologiya (tarmoqlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

#### **Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatida:**

– ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

– tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo‘linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish;

– birlamchi ishlab chiqaruvchi bo‘g‘in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

– bajarayotgan faoliyat bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;

– kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tadbiq etish, ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;

– korxonalar tashkiliy-boshqaruv faoliyatida qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ishlab chiqishda hamda qarorlarni muqobil variantini tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;

– zamonaviy axborot texnologiyalardan boshqaruvda foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

– atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talabalarga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

– ishlab chiqarish jarayonlari va resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, favqulotda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish;

– ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalariga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini qo‘llash, investitsion loyihalarni ishlab chiqish va boshqarish.

#### **Axborot-tahliliy faoliyatida:**

– boshqaruv korxonalarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilish;

– qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma‘lumot to‘plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;

- tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma‘lumotlar bazasini yaratish;
- loyhalar samaradorligini baholash;
- axborot-tahlil faoliyati natijalari bo‘yicha hisobot tayyorlash;
- boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarda tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqaruv usullari bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;
- xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarni zamonaviy boshqaruv tizimini ta‘minlashga bag‘ishlangan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o‘rganish va tizimlashtirish;
- tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish tizimini ta‘minlash borasidagi muammoli mavzular bo‘yicha iqtisodiy axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;
- internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma‘lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tadbiq etish.

#### **Turli xizmatlar ko‘rsatish:**

- xavfli gidrologik hodisalar (suv taqchilligi, gidrologik qurg‘oqchilik, kam suvli yillar va boshqalar) bilan bog‘liq tabiiy ofatlarni oldini olishga qaratilgan hukumat tadbirlarida ishtirok etish;
- gidrologik hodisalar xavfini boshqarish va kamaytirish maqsadida tuzilgan ishchi guruhlarda ishtirok etish;
- gidrologiya yo‘nalishiga mos mavzulardagi loyihalarni ekspertiza qilish bo‘yicha ekspert guruhlarida ishtirokchi sifatida qatnashish;
- yo‘nalishga mos loyiha mazulari bo‘yicha turli xizmatlarni ko‘rsatish

## **2. 60530800 – Gidrologiya (tarmoqlar bo‘yicha ) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushinishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati darajasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarni kasbiy faoliyatiga qo‘llay bilishi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlarni qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatni ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida tassavurga ega bo‘lish.

### **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma‘lumotli shaxslar egallashi lozim bo‘lgan lavozimlarda mustaqil ishlash;
- tegishli bakalavriat yo‘nalishi doirasida tanlangan mutaxassislik bo‘yicha magistraturada oliy ta‘limni davom ettirish;
- kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo‘shimcha kasb ta‘limi olish uchun tayyorlanish;

- tabiiy va antropogen suv ob'ektlarida suv o'lchash ishlarini mustaqil olib borish;
- daryo oqimini hosil bo'lishi va unga ta'sir etuvchi omillarni baholay olish;
- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni to'plash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- gidrologik axborotlarni qayta ishlashni amalga oshirishni bilish va natijalarini amaliyotda qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lish;
- suv ob'ektlarining gidrologik rejimiga tabiiy omilining ta'sirini baholay olish;
- suv ob'ektlarining gidrologik rejimiga inson omilining ta'sirini baholay olish;
- suv resurslarining miqdor hamda sifat jihatidan o'zgarishini hisoblashni bilish;
- alohida havzalar yoki ma'muriy huddudlardagi daryolar suv resurslarini baholashni bilish;
- yer usti va yer osti suvlari orasidagi aloqadorlik qonuniyatlarni bilish;
- suv xo'jaligi tadbirlarining daryo oqimi va uning gidrokimyoviy rejimiga ta'sirini bilish;
- ko'llar va suv omborlarida kechadigan gidrologik jarayonlarni baholay olish;
- suv omborlari va ular bilan bog'liq muamolarini aniqlashni, ularning yechimini topa olish;
- gidrologiyaning hozirgi kundagi asosiy muammolarini bilish;
- turli muddatlar uchun gidrologik prognozlarni tayyorlashni bilish;
- iqtisodiyot tarmoqlari uchun xavfli gidrologik hodisalarning yuzaga kelish sabablarini bilish;
- gidrologiya va suv ob'ektlarini muhofaza qilish sohasida loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;
- amaliyotda axborot texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy uslublarini, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash qobiliyatlariga ega bo'lish;
- sohaga oid ilmiy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, axborot va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiq qilish;
- tabiiy resurslardan foydalanish va tabiiy muhit komponentlariga ta'sir etuvchi faoliyatlarning atrof-muhitga ta'sirini baholash jarayonlarini o'tkazish ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur.

### **2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar**

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketmaketligda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabanning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – majburiy va tanlov fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

## 2.4. Kvalifikatsiya: gidrolog, muhandis.

### 2.3.1. 60530800 – Gidrologiya (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha satrlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	4920	164
Tanlov fanlar	1200	40
Malakaviy amaliyot	630	21
Yakuniy davlat attestatsiyasi	450	15

### 2.3.3. 60530800 - Gidrologiya (tarmoqlar bo'yicha) bakalvriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasining tuzilishi

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o'tiladigan semestr
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	4920	<b>164</b>	
1.01	OMTB108	Oliy matematika	240	8	1,2
1.02	UYTB104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.03	FALB104	Falsafa	120	4	4
1.04	URTB104	O'zbek (rus) tili	120	4	2
1.05	XJTB104	Xorijiy til	120	4	1
1.06	DINB204	Dinshunoslik	120	4	3
1.07	GIKB112	Gidrologiyaga kirish	360	12	1,2
1.08	GEFB110	Geofizika	180	6	1
1.09	KGAB110	Kartografiya geodeziya asoslari bilan	180	6	2
1.10	GDGB212	Gidrografiya	300	10	1,2
1.11	GGIB212	Gidralogiyada GIS	120	4	2
1.12	GDMB212	Gidrometriya	360	12	3,4
1.13	GDVB212	Gidravlika	360	12	3,4
1.14	GDFB208	Gidrofizika	240	8	3,4
1.15	MGSB306	Meliorativ gidralogiya	300	10	3,4
1.16	GGAB204	Geomorfologiya geologiya asoslaribilan	180	6	3
1.17	MYIB206	Meteorologiya va iqlimshunoslik	120	4	5
1.18	GSMB306	Gidrologiyada statistik usullar	300	10	6,7
1.19	GIDB308	Gidrologiya asoslari	300	10	5,6
1.20	GDXB306	Gidrokimyo	150	5	5
1.21	SIMB2102	Sinoptik meteorologiya	150	5	6
1.22	GQMB306	Glyatsiologiya va qor qoplami monitoringi	120	4	5
1.23	GIPB308	Gidrologik prognozlar	180	6	7
1.24	GIHB308	Gidrologik hisoblashlar	180	6	7
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>1200</b>	<b>40</b>	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1200	40	4,5,6,7
		<b>Jami</b>	<b>6120</b>	<b>204</b>	
		<b>Malakaviy amaliyot</b>	<b>630</b>	<b>21</b>	<b>2,4,8</b>
		<b>Yakuniy davlat attestatsiyasi</b>	<b>450</b>	<b>15</b>	<b>8</b>
		<b>Jami</b>	<b>1080</b>	<b>36</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	



## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturlari, profil, uqib-o'rganish natijalari, o'quv davri menejmenti, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, daryolar, ko'llar, yer osti suvlari, suv omborlari, qor qoplami, muzliklar, geofizika, gidrografiya, gidrofizika, suv balansi tadqiqotlari, gidrometriya, gidrologiya asoslari, meliorativ gidrologiya va suv xo'jaligi hisoblashlari, meteorologiya va iqlimshunoslik, sinoptik meteorologiya, suv resurslari, gidrologiyada statistik usullar va matematik modellashtirish, gidrokimyo, gidrologik hisoblashlar, gidrologik prognozlar.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:



O'zbekiston Milliy universiteti

*[Signature]*  
I.U.Madjidov

M.O'.

2023 yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish  
tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq  
etish markazi

Direktor *[Signature]* Sh.Yakubov

2023 yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O'.



O'zbekiston Respublikasi  
Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish  
va iqlim o'zgarishi vazirligi huzurdagi  
Gidrometeorologiya xizmati agentligi

Bosh direktor *[Signature]* Sh. Habibullayev

2023 yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O'.



“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini  
mexanizatsiyalash muhandislari instituti”  
Milliy tadqiqot universiteti

Rektor *[Signature]* B.S.Mirzaev

M.O'.



Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Rektor *[Signature]* O.Sh.Bazarov



Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti  
60530800 – Hidrologiya (tarmoqlar bo'yicha) malaka talablari va o'quv rejasini ishlab  
chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida

### KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2023 yil

Biz, quyida imzo chekuvchilar - O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzurdagi Hidrometeorologiya xizmati agentligi bosh direktori Sh. Habibullayev, “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti rektori B.S.Mirzayev, O'zbekiston Milliy universiteti rektori I.U.Madjidov bilan birgalikda O'zMUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

1. 60530800 – Hidrologiya (tarmoqlar bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi.

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 15 iyundagi “2023/2024 o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida”gi Farmoniga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek halqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-  
muhitni muhofaza qilish va iqlimo'zgarishi  
vazirligi huzurdagi Hidrometeorologiya  
xizmati agentligi bosh direktori

Sh. Habibullayev

O'zbekiston Milliy universiteti rektori

I.U.Madjidov

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini  
mexanizatsiyalash muhandislari instituti”  
Milliy tadqiqot universiteti rektori

B.S.Mirzayev

**Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida  
ishlab chiqilgan 60530800 – Gidrologiya (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi  
bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy  
bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar yangilangan  
malaka talablari va o'quv rejasiga  
TA Q R I Z**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMUda 60530800 – Gidrologiya (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishining malaka talablarini ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 15 iyundagi "2023/2024 o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi Farmoniga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek halqaro talablarga asoslangan.

60530800 – Gidrologiya (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasida ta'lim fanlarining tuzilmasi, mazmuni, o'quv yuklamasi hajmi, ta'lim oluvchilar va bitiruvchilarning malaka dapajasi va tayyorgarlik sifatiga qo'yiladigan talablar to'g'ri ko'rsatilgan. Ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan barcha blok fanlari to'g'ri tanlangan. Ta'lim oluvchilarda horij tajribasi asosida chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda ilg'or horijiy OTM larining zamonaviy uslub va texnologiyalariga, o'quv mashg'ulotlarining shakllariga va mustaqil bilim olishga keng o'rin berilishi diqqatga sazovordir. Malaka talablari va o'quv reja xalqaro standartlarga mos xolda tuzilgan. Fanlar bo'yicha soatlarni taqsimlashda belgilangan vaqt me'yorlariga amal qilingan. Fanlarni bloklar va semestrlarga joylashtirishda uslubiy ketma-ketlikka qat'iy rioya etilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda kadrlar iste'molchilarining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60530800 – Gidrologiya (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasini horij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, jahon andozalariga mos yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan xolda sifatli tuzilgan bo'lib, o'quv jarayonining me'yoriy hujjatlarini tayyorlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi xamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

**"TIQXMMI" MTU Gidrologiya va  
gidrogeologiya kafedrasining  
t.f.d., prof.**



**F.A.Gapparov**

**Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida ishlab chiqilgan  
60530800 – Gidrologiya (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli  
bakalavrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan  
talablar yangilangan malaka talablari va o'quv rejasiga  
T A Q R I Z**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida 60530800 – Gidrologiya (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishining malaka talablarini ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019 yil 8 oktabrdagi 5847-son farmoni, "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohatlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022 yil 21-dekabrda RG'-269-son va "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2023 yil 25-yanvardagi RG'-14-sonli farmonlari hamda O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun doirasida tayyorlangan.

60530800 – Gidrologiya (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha yangilangan malaka talablari va o'quv rejasini tayyorlashda mualliflar, buyurtmachi - O'zbekiston Respublikasi ekalogiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzurdagi Gidrometeorologiya xizmati agentligi hamda turdosh oliy o'quv yurtlari - Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tatqiqot universiteti va Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti bilan kelishilgan holda tuzishgan hamda buyurtmachi, turdosh oliy ta'lim muassasalarining talab va takliflarini ham inobatga olishgan.

Alohida ta'kidlash lozimki, 60530800 – Gidrologiya (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha yangilangan malaka talablari va o'quv rejasini xorij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur yo'nalishda tahsil oladigan bakalavrlarga o'quv rejasidagi fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar hamda tasavvurga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar aniq ko'rsatib o'tilgan. Malaka talablari va yo'nalishning o'quv rejasida gidrologiya sohasidagi dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga hamda o'quv-dala amaliyotlariga, mustaqil bilim olish, olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rin ajratilgan.

60530800 – Gidrologiya (tarmoqlar bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasini kredit-modul tizimi asosida shakllantirilgan va kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o'zlashtirishi, o'quv-dala amaliyotlarni o'tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta'minlovchi mazmunda ishlab chiqilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda ta'limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashtirish sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay

olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan va ko'pgina yangi, zamonaviy fanlarga o'rin ajratilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt budjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, 60530800 – Hidrologiya (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi shuning uchun yangilangan malaka talablarini tasdiqlashni taklif qilaman.

**Mirzo Ulug'bek nomidagi  
O'zbekiston Milliy universiteti  
Quruqlik gidrologiyasi kafedrasi mudiri**



**G'.X. Yunusov**